

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TABLIM VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**



MALAKAVIY AMALIYOT DASTURI

5420100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi
3-BOSQICH TALABALARI UCHUN

SAMARQAND – 2013

Dastur Samarqand qishloq xo'jaligi instituti «Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti va boshqaruvi» kafedrası mudiri, professor O.Murtazayev, dotsentlar D.Rahmonov, I.G'aniyev, F.Ahrorov va assistent G'.Ibragimovlar tomonidan tayyorlangan. Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti uslubiy hay'atining 2013 yil 28 avgust 1-son qarori, fakultet ilmiy kengashining 2013 yil 29 avgust 1-son qarori, institut olimlar kengashining 2013 yil 30 avgust 1-son qarori bilan ma'qullangan.

Taqrizchilar:

1. B.Abdukarimov - Samarqand ISI, Iqtisodiyot kafedrası professori
2. A.Aliqulov – SamQXI, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası mudiri, i.f.d.

1. UMUMIY QOIDALAR VA TAVSIFNOMALAR.

Ushbu dastur asosida Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti 5420100-«Fermer xo'jaligini boshqarish va yuritish» yo'nalishi yo'nalishining 3-bosqich kunduzgi bo'lim talabalari "Fermer xo'jaligi faoliyati biznes rejasini tuzish" fanidan – 2 hafta, "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish" fanidan – 3 hafta Malakaviy amaliyotni o'tkazadilar. Jami 5 hafta davom etadi. Shu davr ichida talabalar korxona ichki mehnat tartib va qonuniyatlariga bo'ysunadilar, iqtisodiy mutaxassislik lavozimiga ishga olinadilar va ularga korxona imkoniyatiga ko'ra mehnat haqi beriladi.

Malakaviy amaliyotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

a) Hozirgi bozor munosabatlari davrida qishloq xo'jaligi, boshqa agrosanoat majmualari korxonalari va tarmoqlari iqtisodiyoti, ularni tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish va har tomonlama tahlil etish va huquq, mehnatni muhofaza qilish va boshqa nazariy-uslubiy bilimlarni korxonalar doirasida ularning tabiiy, iqtisodiy tashkiliy sharoitlarini hisobga olgan holda ishlab chiqarishga ijobiy joriy etishni o'rganish;

b) Mustaqil Malakaviy amaliyot hisoboti yozish uchun kerakli dalillar yig'ish va ularni maqsadga muvofiq qayta hisob-kitob qilish;

d) Bozor iqtisodiyoti samaradorligini oshirishga tegishli maxsus adabiyotlarni va tavsiyalarni qishloq xo'jalik va boshqa agrosanoat korxonalariga va ularning bo'limlariga joriy etishda ishtirok etish;

e) Korxona doirasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-tashkiliy boshqarish samaradorligini o'rganish va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar, taklif va tavsiyalar berish va boshqalar.

Malakaviy amaliyotga rahbarlik Iqtisodiyot va boshqaruv fakultetining professor-o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Ular talabalarni amaliyotga chiqishlaridan oldin instruksiya o'tkazadilar, amaliyot davrida bajariladigan barcha ishlarni davriy nazorat qiladilar. Talabalarning yutuqlari va kamchiliklarini kundalik daftarga yozadilar, kafedralar va dekanat rahbarlariga yozma ravishda yetkazadilar. Talabalarni sifatli amaliyot o'tishlari korxonalarining bosh (katta) iqtisodchisiga yuklanadi va unga rahbarlik qilish uchun ish haqi to'lanadi. Korxonalarining bosh iqtisodchilari ushbu dasturda ko'rsatilgan va boshqa muammolarni o'rganishda talabalarga ijobiy yordam ko'rsatadilar, ularga me'yorda ishlash, dam olish va yashash sharoitlarini yaratadilar. Haftada kamida bir marta amaliyot dasturining bajarilishini tekshiradi va kundalik daftarga imzo qo'yadilar. Ular talabalar tomonidan mustaqil yozilgan Malakaviy amaliyot hisobotini tasdiqlaydilar.

Hisobotda amaliyot jarayonida bajarilgan barcha ishlarning mazmuni va oxirgi natijalari tasvir etiladi. Hisobot qo'lyozma shaklida yoziladi, uning hajmi kamida 60 bet atrofida bo'lishi kerak, uni sxemalari diagrammalari, rasmlar bilan bezatish tavsiya etiladi. Hisobotning titul betida quyidagilar ko'rsatiladi:

Oliygo'hi nomi, hisobot nomi, ixtisoslik va guruh raqami, familiyasi va ismi, amaliyot o'tilgan korxona, tuman va viloyat, amaliyotning korxona va oliygo'hi rahbarlari, hisobot yozilgan kun, imzo qo'yiladi va muhr bosiladi.

Talabalar hisobot bilan birga amaliyotni o'tash kalendar ish rejasini va uning bajarilishi yuzasidan olib borilgan kundalik daftarni ham topshiradilar. Hisobotga talaba haqida amaliyot o'talغان ob'yekt boshqaruvchisining tavsifnomasi qo'shib topshiriladi. Har bir amaliyot hisobotiga kafedralar tomonidan tayinlangan professor-o'qituvchilari xulosalar yozib beradilar. So'ngra hisobotlar kafedraning maxsus hay'at yig'inida himoya qilinadi. Amaliyot natijalari reyting tizimi asosida baholanadi va talabalarning sinov daftarchasiga yoziladi.

2. MALAKAVIY AMALIYOTNING NAMUNALI MAZMUNI.

1. Talabalarning malakaviy amaliyotni korxona rahbarlari va mutaxassislari bilan tanishish, korxona va uning bo'limlarini joylanishini, uning tashkil topish va rivojlanishi tarixini o'rganishdan boshlaydilar:

Korxona tomonidan tayinlangan rahbar tomonidan, uning yordamida dastlabki kun ichida kalendar ish rejasini tuzadilar (Bunda 1-ildovada ko'rsatilgan taxminiy kalendar ish rejasidan foydalanish tavsiya etiladi).

2. Korxona, uning bo'limlari va tarmoqlarining asosiy ko'rsatkichlari bilan tanishadilar. Amaliyot jarayonida kamida uch yillik korxonaning iqtisodiy-texnik ko'rsatkichlari har tomonlama tahlil qilinadi. So'ngra iqtisodiy-tashkiliy va boshqa muammolarning samaradorligini oshirish rejalarini tuzishda foydalanadi. Mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va samaradorligini oshirish dastavval mavjud imkoniyatlardan foydalanishni yaxshilash omillarini aniqlashdan boshlanadi. Shuning uchun ushbu dasturda resurslardan foydalanishning tahlil etishga, uni yaxshilashga keng o'rin berilgan.

Resurslardan foydalanishni yaxshilash joriy va istiqbol rejalarini asoslashda iqtisodchi-mutaxassislardan tashqari barcha texnolog mutaxassislar ham aktiv ishtirok etishlari maqsadga muvofiqdir.

3. Fermer xo'jaligining biznes rejasi

3.1. Biznes-rejaning mohiyati va vazifalari.

3.2. Biznes-rejani tayyorlash bosqichlari.

3.3. Biznes-reja maqsadlarini ishlab chiqish.

3.4. Biznes-rejaning axborotlar manbai. Biznes-reja tuzilmasini tanlash.

3.5. Biznes-rejani ishlab chiqishni boshqarishning zaruriyati va muddatlari.

- 3.6. Biznes rejani resurslar bilan taminlanganligi.
- 3.7. Biznesni sug'urtalash. Biznes reja muvaffaqiyatining omillari.
- 3.8. Huquqiy, moliyaviy, innovatsion, ijtimoiy tavakkalchilik.
4. Korxona tavsifi
 - 4.1. Korxonaning tarmoqdagi va bozordagi holati tahlili.
 - 4.2. Tarmoqni tavsiflash. Tadbirkorlik faoliyati soxasini tanlashning asosiy omillari.
 - 4.3. Korxonani baholash. Bozorni va asosiy raqobatchilarni tahlil qilish.
 - 4.4. Korxona tavsifnomasi, SWOT – tahlil. Korxona va uning raqobatchilarining kuchli va zaif tomonlari tahlili.
5. Korxona mahsulotini tavsiflash, uning marketing va ishlab chiqarish rejasi
 - 5.1. Mahsulotning umumiy tavsifi va uni baholash.
 - 5.2. Mahsulotning iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlari.
 - 5.3. Eksport ko'rsatkichlari va uning imkoniyatlari. Mahsulotni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.
 - 5.4. Zamonaviy marketingni tashkil qilish va uni kompleks o'rganish.
 - 5.5. Bozorni segmentlash.
 - 5.6. Ishlab chiqarish dasturi, texnologiyasi va kooperasiyasi.
 - 5.7. Ishlab chiqarish rejasining ko'rsatkichlar tizimi.
 - 5.8. Aylanma mablag'lar tarkibi, aylanishi va ko'rsatkichlari.
6. Fermer xo'jaligida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish biznes-rejasini tuzish
 - 6.1. Fermer xo'jaligida dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun talab yetiladigan maydonni, ekin turlarini va xarajatlarni aniqlash.
 - 6.2. Ishlar va xizmatlarni aniqlash.
 - 6.3. Mahsulot tulari bo'yicha tannarxni hisoblashish.
7. Chorvachilikda biznes-rejalashtirish asoslari
 - 7.1. Poda harakatini tuzish.
 - 7.2. Mollarning mahsuldorligi.
 - 7.3. Chorvachilikda ozuqa sarfini rejalashtirish.
 - 7.4. Chorvachilik mahsulotlari turi bo'yicha jami xarajatni aniqlash, xarajat turlari bo'yicha hisob-kitoblar.
8. Tashkiliy reja va menejment. Korxonaning moliyaviy rejasi
 - 8.1. Tashkiliy rejaning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
 - 8.2. Tashkiliy rejaning menejmentga bo'lgan talablari.
 - 8.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Personalni boshqarish.
 - 8.4. Boshqaruvni tashkil etish.
 - 8.5. Moliyaviy rejaning ahamiyati., mazmuni va asosiy bo'limlari.
 - 8.6. Ishlab chiqarish xarajatlari, soliq va to'lovlar.
 - 8.7. Korxona faoliyatining moliyaviy natijalari. Korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari.
9. Biznes reja samaradorligini baholash
 - 9.1. Vaqt bo'yicha pul qiymatini hisobga olish. Pulning iste'mol va real qiymatini hisoblash.

- 9.2. Samaradorlikni baholash ko'rsatkichlari va urarni hisoblash uslublari.
- 9.3. Real investisiyalar samaradorligini baholash tamoillari.
10. Qishloq xo'jalik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.
 - 10.1. Dehqon xo'jaligini tashkil etish va rivojlanish asoslari.
 - 10.2. Fermer xo'jaligini tashkil etish va rivojlanish asoslari.
 - 10.3. O'zbekistonda fermerlikni rivojlantirishni ustuvorligi.
 - 10.4. Agrofimalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari. Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish.
11. Qishloq xo'jaligida resurs salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish.
 - 11.1. Yer fondining shakllanishi va undan foydalanishni tashkil etish.
 - 11.2. Suv manbalaridan samarali foydalanish va suv ishlatishni rivojlantirish.
 - 11.3. Sug'orish tizimi va suvni tejovchi yangi sug'orish texnologiyalaridan foydalanish.
12. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini tahlil qilish uslublari.
 - 12.1. Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini o'rganish usullari.
 - 12.2. Korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili.
 - 12.3. Mahsulot tannarxining mohiyati va hisoblash usullari.
 - 12.4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini aniqlash.
 - 12.5. Yagona yer solig'i va uning hisobi. Soliq tizimini takomillashtirishning agrar sohani rivojlantirishdagi ahamiyati.
13. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi.
 - 13.1. Qishloq xo'jalik korxonalari ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni, shakllari va darajasi.
 - 13.2. Ixtisoslashuv omillari va tarmoqlari xamkorligining tamoyillari.
14. Qishloq xo'jaligida mehnatni meyorlash tamoyillari. Qishloq xo'jaligi sohasi xodimlarni moddiy rag'batlantirishni tashkil etish.
 - 14.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatni meyorlash. Mehnatni tashkil etishning asosiy tamoyillari.
 - 14.2. Mehnat meyorlariga ta'sir etuvchi omillar va ularning samaradorligini aniqlash usuli.
 - 14.3. Traktorlarning tortish kuchiga agregatlarni qarshiligi va uni aniqlash uslubini. Ishlab chiqarish meyorlari va yoqilgi meyorini aniqlash.
 - 14.4. Qishloq xo'jaligida mehnat motivatsiyasi.
 - 14.5. Qishloq xo'jalik korxonalarida mehnatga haq to'lash.
 - 14.6. Moddiy rag'batlantirish usullari. Moddiy rag'batlantirishda xo'jalik yuritish turli shakllarining ahamiyati.
15. Paxtachilikni tashkil etish.
 - 15.1. Paxta yetishtirishning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati.
 - 15.2. Chigit ekiladigan maydonlarni shudgorlash va o'g'itlash. Chigit ekishni tashkil etish.
 - 15.3. Paxta hosilini yig'ib-terib olish.
 - 15.4. Ekinlarni sug'orishni tashkil etish.

- 15.5. Ekinlarni parvarish qilish. Paxtani qayta ishlash darajasini chuqurlashtirish.
- 15.6. Paxtachilik mahsulotlarini sotishni tashkil etish.
- 15.7. Paxta hosilini davlat tomonida sotib olishini tashkil etish tizimi.
- 16. Donchilikni tashkil etish.
 - 16.1. G'alla yetishtirishni ko'paytirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
 - 16.2. G'allachilikda yuqori hosil olishning asosiy omillari. G'alla yetishtirishni tashkil qilish.
 - 16.3. G'allani almashlab ekishni tashkil etish.
 - 16.4. O'zbekistonda g'alla mustaqilligiga erishganligining ahamiyati.
 - 16.5. G'alla hosilini davlat tomonidan sotib olinishini tashkil etish.
- 17. Sabzavotchilikni tashkil etish.
 - 17.1. Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida agrofimlar tuzishni tashkil etish.
 - 17.2. Sabzavotchilikni ochiq maydonlarda tashkil etish.
 - 17.3. Yopiq joylarda sabzavot yetishtirishni tashkil etish.
 - 17.4. Polizchilikni tashkil etish.
 - 17.5. Kartoshka yetishtirishni tashkil etish.
 - 17.6. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va eksportni tashkil etish.
- 18. Bog'dorchilik va uzumchilikni tashkil etish.
 - 18.1. Uzumchilikni tashkil etish.
 - 18.2. Bog'dorchilikni tashkil etish.
 - 18.3. Uzum va mevalarni saqlash, qayta ishlash va eksportini tashkil etish.
 - 18.4. Bog'dorchilik va uzumchilik agrofimlari tashkil etish.
- 19. Chorvachilik uchun ozuqa ishlab chiqarishni tashkil etish.
 - 19.1. Ozuqa bazasini tashkil etish.
 - 19.2. Yem-xashak rejasi va balansini tuzish.
 - 19.3. Yem-xashakka bo'lgan talabni aniqlash.
 - 19.4. Dalalarda yem-xashak tayorlashni tashkil etish.
- 20. Chorvachilikni tashkil etish.
 - 20.1. Chorvachilik tizimi.
 - 20.2. Hayvonlarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.
 - 20.3. Qoramolchilikni tashkil etish.
 - 20.4. Qo'ychilikni tashkil etish.
 - 20.5. Quyunchilikni tashkil etish.
 - 20.6. Baliqchilikni tashkil etish.
 - 20.7. Piliqchilikni tashkil etish.
 - 20.8. Asalarichilikni tashkil etish.
 - 20.9. Chorvachilikni tashkil etishda ilg'or milliy va xorijiy tajribalarni qo'llash.
- 21. Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnik va innovatsion taminoti.
 - 21.1. Ishlab chiqarishni tashkil etish manbalarining shakllanishi va ulardan foydalanishni tashkil etish.
 - 21.2. Xo'jalikning yangi innovatsion traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash.

21.3. Qishloq xo'jalik texnikalariga texnik xizmatlar ko'rsatish va ta'mirlash.

21.4. Moddiy-texnik va innavatsion ta'minotini tashkil etishning yangi shakllari.

21.5. Qishloq xo'jaligi ishlab – chiqarishining moddiy-texnik va innavatsion ta'minotini tashkil etish.

21.6. Innavatsion moddiy-texnika resurslarini birjalar orqali sotib olishni tashkil etish.

22. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va realizasiya qilishni innavatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.

22.1. Innovatsion texnika va texnologiyalar reestri.

22.2. Sabzavot mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish.

22.3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizasiyasini tashkil etish.

22.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlashni tashkil etish.

22.5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ulgurji bozorlar va birjalar orqali realizatsiya qilish.

22.6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishni tashkil etishni takomillashtirish.

3. HISOBOTNI HIMOYA QILISH TARTIBI.

Talaba o'tkazilgan amaliyot bo'yicha mukammal hisobot yozib, yuqorida ko'rsatilgan har bir bo'limda quyidagi muammolarga to'lig'icha javob yozishi shart. Hisobot tegishli statistik jadval, grafik, rasmlar, diagrammalar bilan tuzilgan bo'lishi kerak.

Hisobotning umumiy hajmi kamida 60 bet bo'lib, amaliyotdan qaytib kelingach, darhol dekanat tomonidan tayinlangan hay'at kotibiga topshiriladi. Hisobot yuzasidan amaliyot o'tkazilgan xo'jalik iqtisodchi mutaxasisi va rahbari tomonidan hisobotni mazmuni yoritilgan tavsifnomasi, amaliyot davrida to'lg'azilgan kundalik hisobot bilan birgalikda topshiriladi.

Topshirilgan hisobot amaliyot rahbari tomonidan ko'rib chiqilib, himoyaga tavsiya etiladi va talaba yozgan hisoboti yuzasidan dekanat farmoyishi asosida tuzilgan komissiya oldida himoya qilib reyting tizimi asosida baholanadi.

Hisobotdan qoniqarsiz baho olgan talaba 3-bosqichni o'zlashtirmagan hisoblanadi va kursdan-kursga ko'chirilmaydi.

Malakaviy amaliyotning namunali kalendar rejasi

Talabanning ismi familiyasi _____
 3 - bosqich, 30_ - guruhi

T/r	Ish turlari	Sarfla- nadigan kunlar
1.	Korxona bilan umumiy holda tanishish va taqvim ish rejasini tuzish.	1
2.	Fermer xo'jaligining biznes rejasi	1
3.	Korxona tavsifi	1
4.	Korxona mahsulotini tavsiflash, uning marketing va ishlab chiqarish rejasi	2
5.	Fermer xo'jaligida dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish biznes-rejasini tuzish	1
6.	Chorvachilikda biznes-rejalashtirish asoslari	1
7.	Tashkiliy reja va menejment. Korxonaning moliyaviy rejasi	2
8.	Biznes reja samaradorligini baholash	1
9.	Qishloq xo'jalik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.	2
10.	Qishloq xo'jaligida resurs salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish.	2
11.	Qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatini tahlil qilish uslublari.	1
12.	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi.	1
13.	Qishloq xo'jaligida mehnatni meyorlash tamoyillari. Qishloq xo'jaligi sohasi xodimlarni moddiy rag'batlantirishni tashkil etish.	2
14.	Paxtachilikni tashkil etish.	1
15.	Donchilikni tashkil etish.	1
16.	Sabzavotchilikni tashkil etish.	1
17.	Bog'dorchilik va uzumchilikni tashkil etish.	1
18.	Chorvachilik uchun ozuqa ishlab chiqarishni tashkil etish.	1
19.	Chorvachilikni tashkil etish.	1
20.	Qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnik va innovatsion taminoti.	2
21.	Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va realizasiya qilishni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish.	2
	Jami:	30

Talabanning imzosi: _____

Bosh iqtisodchi imzosi _____

Sana _____

muhr o'rni

2-ilova.

Malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishi bajarishda kundalik bajarilgan ishlar va mulohazalar.

Talabanning ismi, sharifi _____
3- bosqich, guruh _____

Kun, oy	Ish turlari	Ishning qisqacha mazmuni va mulohazalar	Rahbarning imzosi
1	2	3	4

Talabanning imzosi
Korxona rahbari (iqtisodchisi) imzosi

__._.2014 yil

muhr o'rne

